

# SHARQ MUTAFAKKIRLARI TA'LIMOTLARINING BUGUNGI KUNDAGI DOLZARBLIGI

*Karimova Malohatoy Mo'minjonovna<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** *Maqolada hozirgi murakkab va tahlikali zamonda, tashqi ta'sirlar, geopolitik maqsadlar huruj qilib turgan bir paytda milliy o'zligimiz, azaliy qadriyatlarimizga yot va begona bo'lgan turli hurujlar internet avlodi, google bolalari, facebook farzandlari, ommaviy madaniyat yoshlarimiz ongini va qalbini egallashga qaratilgan g'arazli intilishlar barchamizni hushyor, ogoh bo'lishga da'vat etadi. Buning uchun esa yillar davomida sayqallanib, o'z ijobiy tasdig'inni topgan Mutafakkirlar ta'limotlaridan foydalanish bugungi kunning eng to'g'ri tanlovi deb ayta olamiz.*

**Kalit so'zlar :** *Insoniyat, tarix, ta'limot, mutafakkirlar, ta'lim tarbiya, milliy o'zligimiz, murabbiylik.*

“Agar farzandimizga to'g'ri tarbiya bermasak, har kuni har daqiqada uning yurish turishi, kayfiyatidan ogoh bo'lib turmasak, ilmu hunarga o'rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib qo'yishimiz hech gap emas”

Sh. M. Mirziyoyev

Odamzod bir necha million yillik rivojlanish tarixini bosib o'tkan bo'lsa, hech shubhasiz aytish mumkinki, aynan ongli ta'lim-tarbiya paydo bo'lgachkina inson sifatida shakllana boshlagan.

Insoniyat to'plagan tajribalarini an'ana va urf odatlarini o'zidan keyingi avlodlarga meros qoldirib, o'z davomchilarga muayyan davr talablari darajasida ta'lim tarbiya berib kelgan.

Hozirgi murakkab va tahlikali zamonda, tashqi ta'sirlar, geopolitik maqsadlar huruj qilib turgan bir paytda milliy o'zligimiz, azaliy qadriyatlarimizga yot va begona bo'lgan turli hurujlar (internet avlodi, google bolalari, facebook farzandlari, ommaviy madaniyat) yoshlarimiz ongini va qalbini egallashga qaratilgan g'arazli intilishlar barchamizni hushyor, ogoh bo'lishga da'vat etadi.

Inson qalbiga yo'l avvalo ta'lim-tarbiyadan boshlanadi. Dunyo imoratlari ichida eng ulug'i ilm dargohlari bo'lsa kasblarning ichida eng sharaflisi butun ongli faoliyatini insonlarni bilimini oshirish va dunyoqarashini o'stirishga bag'ishlagan pedagog, o'qituvchilik va murabbiylikdir. Insoniyatning ko'p ming yillik tajribasi – dunyodagi zo'ravon va tajavvuzkor kuchlar qaysi bir xalq va mamlakatni o'ziga tobe qilib, bo'ysundurmoqchi, uning boyliklarini egallamoqchi bo'lsa avvalo uni quolsizlantirishga ya'ni eng buyuk boyligi bo'lmish milliy qadriyatlari, tarixi va ma'naviyatidan judo qilishga urinadi.

Shu sababli hozir yoshlarimizning ma'naviy olamini turli ma'naviy mafkuraviy tajavvuzlardan asrash, kelajakka qo'yilgan juda katta salmoqli qadam desak mubolag'a bo'lmaydi.

<sup>1</sup> Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi



Ota bobolarimiz farzandlar tarbiyasini hayot va momot masalasi deyishgan. Buning uchun kurashgan, jonlarini fido qilishgan.

Bugungi yoshlar :

- Mustaqil fikrga ega bo'lishlari
- Horijiy tillarni bilishlari
- Dunyoning taraqqiyot qonunlarini bilishlari
- Mablag'ni dabdaga emas, o'qish va o'rganishga sarflashi
- Chiroyli zamonaviy kiyinishi
- Taraqqiyotga intilishi kerakli bugungi kunning aktual talabidir.

Allohning o'zi bizga buyurgan – komil inson bo'lish, halollik va adolat bilan hayot kechirish kabi oliyjanob fazilatlarining ma'no - mazmunini nafaqat, chuqur anglash, balki ana shunday xususiyatlarga ega bo'lish, ularga amal qilib yashash odamzotning ma'naviy boyligidir. Shu borada xazrat Alisher Navoiy aytadiki “Ko'ngil badan mulkining podshohidir. Ko'ngil salomatligi - badanning ham salomatligidir, uning notoblighi - badanning ham notoblighidir. Bundan ko'rinib turibdiki: inson tarbiya masalasiga har doim, har lahza muhtojdir

Bugungi kunda ro'y berayotgan glaballashuv hamda dinning siyosiylashuv jarayoni diniy va ma'rifiy bilimlarini samaradorligini oshirish malakali yetuk kadrlar tayyorlashda, inson qalbiga kirib borishda o'ziga hos qator bilimlarga ega bo'lishni taqozo etmoqda. 2018-yil 12- dekabrda Birlashgan millatlar bosh assambleyasining yalpi majlisida ajoyib bir hujjat “Ma'rifat va diniy bag'rikenglik” rezolyutsiyasi qabul qilindi.<sup>2</sup> Shu bilan birga talabalarda dunyo rivojlanish tamadduniga hissa qo'shgan allomalar ta'limotlari tarbiyaviy qadriyatlardan foydalanishga oid bilimlarni rivojlantirish ularning ilmiy merosiga tayanib faoliyatni takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Mazkur rezolyutsiyaga ko'ra jahonda ta'lim fan, texnika va madaniyatni rivojlantirish bu orqali jahonda havfsizlik va tinchlikni ta'minlash bo'lajak mutaxasislarda innovatsion pedagogik texnologiyalar vositasida mutafakkirlar ta'limotlari va hadis ilmi bo'yicha bilim, ko'nikma malakalarni shakllantirish va ularni faoliyatida insonlarni tarbiyalash jarayonida ana shu bilim quollaridan foydalana olish kabi maqsadlarni o'z oldiga qo'yimoqda. Bugungi kunda dunyo mamlakatlarida jumladan Oksford, Garvard, Lebsig Gyoty universitetlarida dinshunoslik islomshunoslik yo'nalishlarini pedagogik yo'nalishlarini takomillashtirish halqaro tajribalar asosida diniy va dunyoviy tafakkurni shakllantirish va bu jarayonning ilmiy yechimi bo'yicha qator ishlarga e'tibor qaratilmoqda. Xalqaro tajribalar asosida dini va dunyoviy tafakkurni shakllantirish, dinshunoslikka oid bilimlarni rivojlantirishning pedagogik komponentlarini takomillashtirish jarayoning ilmiy yechimi bo'yicha tizimli ishlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Kelajak avlodni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlarida “Ta'lim muassasalarida yoshlar o'rtasida mafkuraviy immunitet, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni shakllantirish, yot g'oyalar ta'siriga tushib qolishni oldini olishga qaratilgan targ'ibotning ta'sirchan usullarini joriy etish” ustivor vazifalar etib belgilandi.<sup>3</sup> Bu esa dinshunoslikka

<sup>2</sup> 1.Resolution adopted by the General Assembly on 12 December 2018. <http://undocs.org/pdf?symbol=en/A/RES/73>.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 14- avgustdagi “Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3907-son



oid bilimlarni rivojlantirish, yoshlarda dinga oid sog'lom tafakkurni shakllantirish, uning didaktik, aksiologik va akmeologik mazmunini takomillashtirishni o'z ichiga olgan ijtimoiy-pedagogik tadqiqotlarga bo'lgan zaruratni yanada kuchaytiradi

Ajdodlarimiz tamonidan kelajak avlod uchun qoldirilgan ma'naviy va madaniy meros **Konstitutsiyamizning XI-bob 49-moddasida keltirilgan.** Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar.

Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir.<sup>4</sup>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son,<sup>5</sup> 2018 yil 16 apreldagi "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5416-son farmonlari,<sup>6</sup> 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi,<sup>7</sup> 2017 yil 15 dekabrda "O'zbekiston islom akademiyasini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3433-son qarorlari<sup>8</sup> hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Hadislarni o'rganib keng jamoatchilikka targ'ib qilish ishlari asosan VIII asrga borib taqaladi. Ana shu davrdan boshlab Turkiston maktablarida o'quvchilarni savodi chiqqandan so'ng hadislardan namunalar o'qib, uni yod olishgan.

XV asrlarda yashab ijod etgan arab olimi Jaloluddin Suyutiyning "Jome' us-sag'ir" hadis kitobi hisoblanadi. Ushbu kitobdan turk yozuvchisi Orifbek "Ming bir hadisni" tanlab oladi, uni turk tiliga tarjima qilib, unga sharx yozadi va u darslik sifatida qo'llaniladi. 1906-yilda Orifbekning "Ming bir hadis" kitobi Shokirjon Homidiy tamonidan tatar tiliga tarjima qilinib Qozon shahrida nashr etiladi. 1915-yilda ushbu asar qaytadan nashr etiladi. 1991- yilda Teshaboy Ziyoyev "Yuz bir hadis" asarini yaratdi. 1993-yil Zohidxon Qodir Otaxon o'g'lining "Payg'ambarlar qissasi" yaratildi. 1994-yilda Ubaydulla Uvatovning "Donolardan saboqlar" kabi asarlar yaratildi.

Dinning tarixiy, sotsial, psixologik jihatlarini xorijlik olimlar Gudron Kramer, K.V.Greene, E.Dryukgeym, N.Krause, L.Levi-Bryul, Marta Axner, E.Renan, Dj.Frezer, Z.Freyd, G.Yunglar<sup>9</sup>

---

Qarori.

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2014. – B.13.

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son.

<sup>6</sup> 2018 yil 16 apreldagi "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5416-son farmonlari

<sup>7</sup> 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi qarorlari

<sup>8</sup> 2017 yil 15 dekabrda "O'zbekiston islom akademiyasini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3433-son qarorlari

<sup>9</sup> Gudron Kramer Geschichte des Islam. – Munchen.: 2005. - 327 pg.; Greene K.V. and Yoon B.J. Religiosity, economics and life satisfaction // Review of Social Economy, vol. 62, no. 2, pp. 245–273, 2004; Dryukgeym E. Elementarnye formy religioznoy jizni: totemicheskaya sistema v Avstrali. – M.: Delo, 2018. - 736 s.; Krause N. Religious doubt and psychological well-being: a longitudinal investigation // Review of Religious Research, vol. 47, no. 3, pp. 287–302, 2006; Levi-Bryul L. Sverx'estvestvennoe v pervobyitnoe myshlenie. – M.: Pedagogika-Press, 1994. - 608 s.; Marta Axner. Doctoral Theses. Public religions in Swedish media: A study of Religious Actors on Three Newspaper Debate Pages 2001-2011. – Uppsala universitet, Teologiska institutionen: 2013; YUng G. Arxetip i simvol. – M.: 1991. - 326 s.; Renan E. Jizn Isusa. – M.: Vsy Moskva, 1990. - 336 s.; Frezer Dj. Zolotaya vetv issledovanie magii religii. Perevod Tokerev S.A. – M.: 2003. - 756 s.; Freyd Z. Psixoanaliz, religiya, kultura. – M.: Renessans, 1992. - 304 s.; YUng G. Arxetip i simvol. – M.:



tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida dinshunoslikka oid bilimlarni rivojlantirishning falsafiy va psixologik masalalariga doir ayrim jihatlari .A.Abdurashidova, T.I.Borko, O.R.Zayseva, O.N.Izotova, B.N.Mazur, I.V.Metlik, D.O.Smirnovlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida yoritib berilgan.

Dinshunoslikka oid bilimlarni rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari respublika olimlaridan I.Karimov, M.M.Qahhorova, din, diniy e'tiqod, diniy ma'rifat kabi xususiyatlari S.S.Abdullaev, J.K.Bayaliev, A.A.Baynazarova, Sh.A.Yovqochev, E.F.Ibragimov, K.S.Kamilov, U.R.Kushayev, Z.M.Xusniddinov<sup>10</sup>larning tadqiqotlarida tahlil etilgan

Pedagog olimlardan Sh.A.Akromova M.E. Ahmedova G.Zaripova A. Ismanova O. Musurmonova, M.E Pazilova.Z T. Saliyeva N.M Egamberdiyeva<sup>11</sup>lar tamonidan muammoning ijtimoiy pedagogik ,akmeologik jihatlari o'rganilgan.

Sharq mutafakkirlarining ajoyib namoyondalari sifatida quyidagi ajdodlarimizni sanab o'taman.

Imom Ismoil al-Buxoriy (809-871)

Abu iso Muhammad at-Termiziy (824-894)

Abu Mansur Motrudiy (870-944)

Abu Nasr Farobiy (873-950)

Abu Rayxon Beruniy (973-1048)

Abu Ali Ibn Sino (980-1037)

Abul Qosim Maxmud az-Zamahshariy (1075-1144)

Aziziddin Nasafiy (1240-1300) kabi mutafakkirlar Sharq pedagogikasining asoschilaridir. Germaniyalik Xerler: "Sharq-Yevropaning muallimidir", degan Sharqona odob 1000 yillar mobaynida islomiy tarbiya qoidalari asosida tarkib topib, takomillashib borgan. Qur'oni Karim oyatlari, mazmuni,

---

Renessans, 1991.- 300 s.

<sup>9</sup> Karimov I. Imon va maslak tarixi. – T.: YAngi asr avlodi, 2010. – 212 b.; Qahhorova M.M. Jamiyatda ma'naviy-axloqiy muhit: muammo va echimlar. fal.fan.dok ... diss. –T.: 2012. -286 b.; Abdullaev S.S. O'zbekistonda e'tiqod erkinligi va islom. Fal.fan.nom. ... diss. – T.: 2002. -150 b.; Bayaliev Dj.K. Globallashuv sharoitida diniy va dunyoviy mafkuralarning o'zaro ta'siri. Fal.fan.nom. ... diss.

<sup>11</sup> Akromova ShA. Bo'lajak bojxona xizmati xodimlarida mafkuraviy immunitetni rivojlantirish ped. fan. dok. ... diss. avtoreferati. – T.: 2017. -69 b.; Axmedova M.E. Pedagogika tarixini o'qitishda talabalarining ma'naviy sifatlarini tarbiyalash. Ped.fan.nom. ... diss. – T.: 2008, -166 b.; Zaripova G.K Naqshbandiya tariqatida ta'lim-tarbiyaning o'ziga xos pedagogik texnologiyasi. Ped.fan.nom. ... avtoreferati. – T.: 2010. -25 b.; Ismanova A.A. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi pedagogik profilaktika tizimini takomillashtirish (O'rta maxsus kasb hunar ta'limi tizimida). Ped.fan.nom. ... diss. avtoreferati. – T.: 2017. - 53 b.; Musurmonova O. YUqori sinf o'quvchilari ma'naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari. Ped.fan.dok. ... diss. – T.: 1993. - 364 b.; Pazilova M.E. O'quvchi ma'naviyatini hadislar vositasida shakllantirishning pedagogik asoslari ("Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" va "Dunyo dinlari tarixi" o'quv fanlari misolida). Ped.fan.nom. ... diss. – T.: 2004. -188 b.; Saliyeva Z.T. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining ma'naviy madaniyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish. Ped.fan.dok. ... dis. avtoreferati. – T.: 2017. - 66 b.; Egamberdieva N.M. Madaniy insonparvarlik yondashuvi asosida talabalarni shaxsiy hamda kasbiy ijtimoiylashtirish nazariyasi va amaliyoti (pedagogika oliy ta'lim muassasalari misolida). Ped.fan.dok. ... diss. – T.: 2010. - 332 b.; Qilichova K.YU. Oliy ta'lim tizimida tasavvuf ta'limoti vositasida talabalar ma'naviyatini shakllantirish. Ped.fan.dok. diss. ... – T.: 2009. -263 b.



Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) hadislarini, ulug‘ allomalarning kitoblari, tarbiyamizning manbai bo‘lib hizmat qilgan.

Talabalarda sharq mutafakkirlari ta‘limotlari va hadislarida keltirilgan tarbiyaviy qadriyatlardan foydalanish shakllarini takomillashtirishdan iborat.

Talabalarda dono xalqimiz tarixini buyuk mutafakkirlarimiz shaxsi, hayot yo‘llari faoliyatini o‘rganishga oid bilimlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini shakllantirish.

Allomalar merosi va tarbiyaviy qadriyatlardan foydalanishga oid bilimlarni rivojlantirishda oila, ta‘lim muassasasi, diniy tashkilotlar hamkorligini ijtimoiy pedagogik imkoniyatlarini aniqlash

Yoshlarda yot g‘oyalar, g‘oyaviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish va ular ongida umuminsoniy qadriyatlar va insoniy fazilatlar tizimli aloqadorligini yaratish

Jamiyatda, oilaviy muhitda, farzand tarbiyasida, o‘zaro munosabatlarda sayqallanib kelayotgan, ilm-fanda o‘z tasdig‘ini topgan madaniy merosimizni rivojlantirishning samarali usullarini yoritib berish

Bebaho, ilmiy va madaniy merosimizni kelajak avlodlar uchun to‘la to‘kis yetkazish bo‘yicha amaliy pedagogik xususiyatlarni shakllantirish

Talabalarda sharq mutafakkirlari ta‘limotlari va hadislarida keltirilgan tarbiyaviy qadriyatlardan foydalanish shakllari takomillashtirish jarayoni.

Talabalarda sharq mutafakkirlari ta‘limotlari va hadislarida keltirilgan tarbiyaviy qadriyatlardan foydalanish shakl, metod, vositalari.

Tadqiqot jarayonida mavzuga oid falsafiy, tarixiy, sotsiologik, pedagogik-psixologik adabiyotlarni qiyosiy o‘rganish va kontent tahlil qilish, kuzatish, sotsiometrik (suhbat, anketa, so‘rovnomma, test), pedagogik eksperiment, natijalarni matematik va statistik tahlil etish usullaridan foydalanildi.

- tadqiqot mavzusiga oid ilmiy, ommaviy adabiyotlar, o‘quv-metodik qo‘llanmalarni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etish;
- allomalarni tarbiyaga bag‘ishlangan asarlarini o‘rganish;
- Imom al-Buxoriyning “Al-adab al-mufrad” odob kitobini bugungi kundagi ahamiyati undagi dolzarb mavzularning tadqiqi;
- ilmiy-amaliy pedagogik kuzatuv;
- tajribalarni o‘rganish va umumlashtirish;
- tadqiqot mavzusi bo‘yicha suhbatlar tashkil etish;

Sharq mutafakkirlari ta‘limotlari tarbiyaviy qadriyatlardan foydalanishga oid bilimlarning pedagogik-psixologik xususiyatlari talabalarda diniy va ilmiy dunyoqarash parametrlarini aniqlashtirish, qiyosiy tahlil asosida takomillashtirish masalalarini yoritish, talabalarning tarbiyaviy qadriyatlardan foydalanishga oid bilimlari “oila–oliy ta‘lim muassasalari mahalla tashkilotlari” hamkorligi jarayonini, katta avlod vakillari, pedagog, diniy soha mutaxassislari hayotiy tajribasi hamda intellektual salohiyatidan foydalanishni pedagogik loyihalash asosida rivojlantirish, talabalarda tarbiyaviy qadriyatlardan foydalanishga oid bilimlarni emotsional intellekt orqali rivojlantirishda (fuqarolik, kasbiy va axloqiy o‘zini o‘zi anglash) tarbiya usullari pozitiv integratsiyalashuv asosida takomillashtirish bugungi kunning dolzarb masalalari hisoblanadi.



Talabalarning kasbiy kompetensiyalari tadqiqot jarayonida ajdodlar ilmiy va madaniy meroslaridan samarali foydalanish shakllari ishlab chiqish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida"gi Qonuniga asosan quyidagi elektron hisoblash mashinalari uchun: Psixologik pedagogik tadqiqotlar umri davomida mehnat faoliyatida ham, shaxsiy hayotida ham katta yutuqlarga erishgan, joiz bo'lsa "yulduzi chaqnagan" kishilar nafaqat o'z sohasiga doir yuksak bilim va iqtidor, balki go'zal xulq, notiqlik, xushmuomala, kishilarni tez tushunish, vaziyatni ilg'ay olish va o'zaro munosabatlar jarayonida vujudga keladigan ziddiyatlarni hal etish qobiliyatlari sohibi ekanini ko'rsatadi. Bunday qobiliyatlarga ega kishilarni yaqindan o'rganadigan bo'lsak ular dunyo allomalari shaxsi ular qilgan mehnatlari, hayot yo'llari va asarlarini chuqur ehtirom bilan e'tirof etgan kishilar ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Azaliy qadriyatlarimiz va axloqiy fazilatlarni o'zida etgan muqaddas dinimizni asrash va qadrlash har birimizning sharaflı burchimizdir. Islom - haqiqatni anglash demakdir, u odamzodni ezgu amallarni bajarishga undaydi, har birimizni yaxshilik va tinchlikka chorlaydi, haqiqiy inson bo'lishni o'rgatadi, deya ta'kidlaydi prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev

Bugungi kundagi imkoniyatlar, oxirgi 30 yilda yaratilgan asarlar Sharqning ikkinchi renessansi boshlanayotganidan darakdir. O'z yillik mablag'ini yarmidan ko'pini ta'limga, ijtimoiy sohaga sarflayotgan mamlakat yuksalishga haqlidir.

O'zbekiston bugungi yangi taraqqiyot bosqichida ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan yuksak axloqqa, an'analarga, islom ma'naviyatiga har qachongidan-da ko'proq e'tibor qaratmoqda.

Imom Buxoriy va Imom Termiziy xalqaro ilmiy tadqiqot markazlari, Mir arab oliy madrasasi kabi o'quv tadqiqot hamda hamda ilmiy ma'rifiy muassasalarning ta'sis etilishi, hadis, kalom, fiqh va tasavvuf maktablariga asos solinganligi, Prezidentimizning 2017-yil 15- dekabrda "O'zbekiston islom akademiyasini tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori<sup>12</sup> va 2018-yil 22-iyundagi "O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi faoliyatini tashkil etish va qo'llab quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari<sup>13</sup> ajdodlar merosini chuqur o'rganishga imkoniyat eshiklarini ochdi.

Bu borada Abdulla Avloniy shunday fikrlarni bayon etadi: "Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak – tanani pok tutmak, yosh vaqtdan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o'rgatmak, yomon xulqlardan asrab o'stirmakdir. Tarbiya qiluvchilar tabib kabi durki, tabib xastaning badaniga davo qilgani kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga "yaxshi xulq" degan davoni ichidan, poklik degan davoni ustidan, berub, kata qilmak lozimdir. Zeroki, "Hassinu axloqakum" amri sharifi uzra xulqimizni tuzatmakka amr etilganmiz. Lekin xulqimizning yaxshi bo'lishining asosiy panjasi tarbiyadir... Hukomlardan biri: Har bir millatning saodati, davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'liqdur"- demish. Shariati islomiyada o'z bolalarini yaxshilab tarbiya qilmak - otalarga farzi ayn, o'z millatining yetim qolgan bolalarini tarbiya qilmak farzi kifoyadir..."

Ko'p ming yillik tarixiy tajribalardan shu narsa ma'lumki, o'tmishda diyorimizda bir necha marta kuchli-kuchli davlatlar qad rostlagan va ko'p o'tmay nurab yakson bo'lgan. Afsusli yeri shuki, davlatlarning yo'q bo'lishiga tashqi dushmanlarning zarbasi emas, dunyoga mashxur saltanatlarning yemirilishlariga shahzodalarning yaxshi tarbiya ko'rmaganlari sababdir.

<sup>12</sup> Prezidentimizning 2017-yil 15- dekabrda "O'zbekiston islom akademiyasini tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori

<sup>13</sup> 2018-yil 22-iyundagi "O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi faoliyatini tashkil etish va qo'llab quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari





Shu sababli tarbiya masalasi eng dolzarb va zaruriy masaladurki, Bola – “sen tarbiyalashing kerak”, deb goh u yoqqa, goh bu yoqqa oshiradigan ko‘ptok emas. Farzand tarbiyasiga ota-ona mas’ul, maktab esa bu sohada ko‘makchi. Bolaning tergap, nazorat qilish ota-ona yuzining yorug‘ligini ta’minlaydi. Tarbiyadan tashqaridagi bola beboshlik va yaramaslik sari og‘adi. Erka bo‘lib o‘sgan o‘g‘il-qizlarning xatti-harakati ota-onaga mung va alam keltiradi. Shu bois ham Abdulla Avloniy ta’kilaganidek: ”tarbiya bizlar uchun yo – hayot, yo – momot, yo- najot, yo- halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”.

Biz yana bir narsani faxr bilan ayta olamiz, bizni tarbiya borasida shunday go‘zal qadriyatlarimiz borki, ana shu qadriyatlarimiz tufayli tarbiyani chiroyli ko‘rinishlarlarini ifoda eta olamiz.

Ispaniyalik bir faylasuf olim, butun umrini jahon xalqlarining urf-odatlarini, axloq-odobini o‘rganishga, tadqiq qilishga bag‘ishlangan ekan. Ittifoqo, o‘sha olim bizni yurtimizga tashrif buyurib Toshkent, Samarqand, Buxoroga boribdi. Yurtiga qaytib borgach:

“Hozirgacha o‘rgangan, tadqiq qilgan barcha ishlarimni 15 yoshlik o‘zbek qizalog‘ining o‘rnidan turib qo‘lini ko‘ksiga qo‘yganicha choy uzatishidagi odobiga, nazokatiga almashtirishga rozi edim”,- degan ekan.

Yoshlarimiz o‘z allomalarini merosini chuqur o‘rgansin, ular bilan faxrlansin, tagli-tugli boy tarixi, o‘zini yo‘qotmagan xalq farzandi ekanini unutmaslik va bu.g‘urur iftixor tuyg‘ularini o‘zida his etish, naqadar yuksak hissiyot ekanini har bir insonning, yurt farzandining muhim burchidir. Insoniyatni tarbiyalashda, to‘g‘ri yo‘lga solishda talabalarda hadis ilmining alohida o‘rni va ahamiyati juda benazir hisoblanadi. Ana shutalabalarida hadis ilmini “Ustozi avvali”, Hadis ilmini “Podshohi” hisoblanmish, taniqli alloma Al-Buxoriyning “Al-adab al-mufrad” asari va ana shu asar asosida yozilgan zamonamiz ulug‘ kishilaridan bo‘lmish Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning “Odoblar xazinasi” nomli asarlarini o‘rganamiz.

IX va XV asrlar orasida Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan ulkan taraqqiyot ulkan G‘arb adabiyotida musulmon uyg‘onish davri (renessansi) deb ataladi. Bu tamaddunning asosiy yuki Mavorounnahr zimmasida bo‘lib va ilm-fanning yuksalishi Samarqand, Buxoro, Termiz, Xorazm va ko‘xna Shosh (Toshkent) ning ilmiy ruhiyati va salohiyati hamda allomalari tufayli yuzaga kelgan edi. Albatta, Islom dini yurtimizda ikkinchi vatanini topdi, chunki u Arabiston yarim orolida ibodat ko‘rinishida paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, ulkan ta’limot yoki fan maqomini Mavorounnahrda qo‘lga kiritdi deb g‘urur bilan ayta olamiz va fikrimiz dalili sifatida quyidagi ma’lumotlarni keltiramiz. Bu davrda yurtimizdan Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Rayhon al-Beruniy, Ibn Sino kabi jahonga mashhur qomusiy allomalar yetishib chiqdi. Imom al-Buxoriyning “Al-Jami as-sahih” nomli hadislar to‘plami Qur‘oni Karimdan keyingi ikkinchi mo‘tabar manba sifatida e’tirof etiladi. Islom olamida mashhur “as-sahih as-sitta” (olti ishonchli to‘plam) ning avvalgisi bo‘lsa, Imom at-Termiziyning “Sunan at-Termiziy” kitobi ham oltilikning biri sifatida e’tirof etiladi. Shuningdek, islom huquqshunosligi rivojiga ulkan hissa qo‘shgan allomalarimiz sifatida Burhonuddin al-Marg‘iloniy, kalom ilmida alohida maktab yaratgan Imom al-Moturidiy buyuk faqih Abu-I-Lays Samarqandiy, tafsir, adab tilshunoslik ilmlarini ajoyib vakili bo‘lmish Mahmud az-Zamaxshariy, tasavvuf ilmi peshqadamlari deya tan olingan Abdulxoliq G‘ijduvoni, Ahmad Yassaviy, Najmuddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy, Maxmudi A‘zam, So‘fi Olloyor<sup>14</sup> o‘zlarining mustahkam, metin e’tiqodi, qadri va qimmatli asarlari bilan insoniyat taraqqiyoti ravnaqiga ulkan hissa qo‘shganlar.

<sup>14</sup> Islom ensiklopediyasi Toshkent: O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi-2020.



G‘arbning insofli kishilaridan biri bo‘lgan Olmon shoiri Volfrang Gyote:

“Men dunyo tarixini o‘qib shunday hulosaga keldim; dunyo podshohlari to‘plagan jami saltanatu-saroilar Muhammad (s.a.v)ning yirtiq – yamoq yaktaklariga ham arzimasi ekan...”. Biz Yevropa millatlari madaniy imkonimiz yuqori bo‘lishiga qaramay, Muhammad (s.a.v) so‘nggi pog‘onasiga chiqqan olgan zinaning birinchi pog‘onasidamiz, xolos. Hech shubha yo‘qki, hech bir kimsa, u zotdan yuqoriroqqa o‘ta olmaydi”.

“Tojdor hech bir imperator yirtiq hirqasini o‘z qo‘li bilan yamab kiygan Muhammad (s.a.v) qadar hurmat ko‘rmagan”dek e‘tirof etgan.

Ingliz mutaffakkiri va yozuvchisi Bernard Shou: “Agar Muhammad (s.a.v) dek bir odam hozirgi dunyoni boshqarganda edi, bu dunyoning mushkulotlarini hal qilishga muvoffaq bo‘lar edi, bu esa o‘z navbatida, hozirgi navbatida, hozirgi dunyoda yetishmayotgan xotirjamlik va baxtni olib kelgan bo‘lar edi<sup>15</sup> deb tushuntiradi.

Islom tufayli Mavorounnahr mashhur bo‘ldi va dunyo faniga, taraqqiyotiga 3500 dan ziyod allomalarni berdi. Ularning 1500 nafarini ilmiy asarlari O‘zbekiston Respublikasi Sharqshunoslik instituti ilmiy fondida, qolgan 2000 tasi Misr, Parij, London, Istambul, Sank-Peterburg shaharlari<sup>16</sup> saqlanmoqda. Bu tarixiy faktlarni o‘ziyoq dilimizda ajoyib g‘urur hissini tuydiradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. .Resolution adopted by the General Assembly on 12 December 2018. <http://undocs.org/pdf?symbol=en/A/RES/73>.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 14- avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-son Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2014. – B.13.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi ”O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son.
5. 2018 yil 16 apreldagi “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5416-son farmonlari
6. 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi qarorlari
7. 2017 yil 15 dekabrda “O‘zbekiston islom akademiyasini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3433-son qarorlari
8. Gudron Kramer Geschichte des Islam. – Munchen.: 2005. - 327 pg.; Greene K.V. and Yoon B.J. Religiosity, economics and life satisfaction // Review of Social Economy, vol. 62, no. 2, pp. 245–273, 2004; Dryukgeym E. Elementarnye formy religioznoy jizni: totemicheskaya sistema v Avstralii. – M.: Delo, 2018. - 736 s.; Krause N. Religious doubt and psychological well-being: a longitudinal investigation // Review of Religious Research, vol. 47, no. 3, pp.

<sup>15</sup> Xidoyat,2001y ,6-son 14-bet

<sup>16</sup> Xidoyat,2001y ,3-son 19-bet





- 287–302, 2006; Levi-Bryul L. Sverx'estvestvennoe v pervobyitnoe myshlenie. – M.: Pedagogika-Press, 1994. - 608 s.; Marta Axner. Doctoral Theses. Public religions in Swedish media: A study of Religious Actors on Three Newspaper Debate Pages 2001-2011. – Uppsala universitet, Teologiska institutionen: 2013; YUng G. Arxitep i simvol. – M.: 1991. - 326 s.; Renan E. Jizn Isusa. – M.: Vsya Moskva, 1990. - 336 s.; Frezer Dj. Zolotaya vetv issledovanie magii religii. Perevod Tokerev S.A. – M.: 2003. - 756 s.; Freyd Z. Psixoanaliz, religiya, kultura. – M.: Renessans, 1992. - 304 s.; YUng G. Arxetip i simvol. – M.: Renessans, 1991.- 300 s.
9. Karimov I. Imon va maslak tarixi. – T.: YAngi asr avlodi, 2010. – 212 b.; Qahhorova M.M. Jamiyatda ma'naviy-axloqiy muhit: muammo va echimlar. fal.fan.dok ... diss. –T.: 2012. -286 b.; Abdullaev S.S. O'zbekistonda e'tiqod erkinligi va islom. Fal.fan.nom. ... diss. – T.: 2002. -150 b.; Bayaliev Dj.K. Globallashuv sharoitida diniy va dunyoviy mafkuralarning o'zaro ta'siri. Fal.fan.nom. ... diss.
10. Akramova ShA. Bo'lajak bojxona xizmati xodimlarida mafkuraviy immunitetni rivojlantirish ped. fan. dok. ... diss. avtoreferati. – T.: 2017. -69 b.; Axmedova M.E. Pedagogika tarixini o'qitishda talabalarining ma'naviy sifatlarini tarbiyalash. Ped.fan.nom. ... diss. – T.: 2008, -166 b.; Zaripova G.K Naqshbandiya tariqatida ta'lim-tarbiyaning o'ziga xos pedagogik texnologiyasi. Ped.fan.nom. ... avtoreferati. – T.: 2010. -25 b.; Ismanova A.A. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi pedagogik profilaktika tizimini takomillashtirish (O'rta maxsus kasb hunar ta'limi tizimida). Ped.fan.nom. ... diss. avtoreferati. – T.: 2017. - 53 b.; Musurmonova O. YUqori sinf o'quvchilari ma'naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari. Ped.fan.dok. ... diss. – T.: 1993. - 364 b.; Pazilova M.E. O'quvchi ma'naviyatini hadislar vositasida shakllantirishning pedagogik asoslari ("Milliy istiqloq g'oyasi va ma'naviyat asoslari" va "Dunyo dinlari tarixi" o'quv fanlari misolida). Ped.fan.nom. ... diss. – T.: 2004. -188 b.; Salieva Z.T. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining ma'naviy madaniyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish. Ped.fan.dok. ... dis. avtoreferati. – T.: 2017. - 66 b.; Egamberdieva N.M. Madaniy insonparvarlik yondashuvi asosida talabalarni shaxsiy hamda kasbiy ijtimoiylashtirish nazariyasi va amaliyoti (pedagogika oliy ta'lim muassasalari misolida). Ped.fan.dok. ... diss. – T.: 2010. - 332 b.; Qilichova K.YU. Oliy ta'lim tizimida tasavvuf ta'limoti vositasida talabalar ma'naviyatini shakllantirish. Ped.fan.dok. diss. ... – T.: 2009. -263 b.
11. Prezidentimizning 2017-yil 15- dekabrdagi "O'zbekiston islom akademiyasini tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori
12. 2018-yil 22-iyundagi "O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi faoliyatini tashkil etish va qo'llab quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari
13. Islom ensiklopediyasi Toshkent: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi-2020.

